


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR TA'LIM VAZIRLIGI

60310900– *Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)* bakalavriat ta'lim
yo'nalishining malaka talablari

Toshkent - 2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21»
08 dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60310900 – <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60310900 - <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60310900– <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	60310900- <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60310900- <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3.	60310900- <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60310900- <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60310900- <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	9
2.3.2.	60310900- <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	9
2.3.3.	60310900- <i>Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tuzilishi	9
	Bibliografik ma'lumotlar	11
	Kelishuv varog'i	12

1. 60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)–Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar ta'lim sohasidagi yo'nalish bo'lib, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'limining davlat va nodavlat muassasalarida; ta'limi muassasalarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish, ommaviy axborot vositalari, davlat va mahalliy boshqaruvi organlari, har xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarida; xususiy psixologik xizmat ko'rsatish markazlarida psixologik yordam ko'rsatish; O'quvchilarni professionalga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi psixodiagnostik tadbirlar uyushtirish; o'zini o'zi boshqarish organlari, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot institutida; rehabilitatsiya markazlarida, sport jamoalarida psixologik xizmat ko'rsatish; Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy bo'limlarda, huquqni muhofaza qilish idoralarida psixologik yordam ko'rsatish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- korxonalar, tashkilot va muassasalarda psixologik yordam ko'rsatish; ta'lim muhitida psixologik tadbirlarni tashkil etish va uni amalga oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari, o'quvchilari hamda xodimlari, rehabilitatsiya va psixologik xizmat markazlari klientlari;

- respublika tashxis markazi testlari va ularni o'tkazishni tashkil etish jarayonlari, psixologik tadqiqot metodikalari;
- sport jamoasi treneri va sportchilari; psixologik xizmat ko'rsatish mijozlari; shaxsiy muammolari bilan murojaat qiladigan patsientlar;
- eksperimental psixologiya laboratoriyasi jihozlarini tashkillashtirish va qo'llash; savdo va maishiy xizmat ko'rsatishdagi psixologik muammolarni hal etish; mahallalar va fuqarolar;
- aholiga psixologik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini tashkil etish; harbiy va huquqni muhofaza qilish idoralarda psixologik yordam ko'rsatish;
- kadrlarni tanlash va ular faoliyatini psixologik tashkil etish; psixodiagnostik, psixologik maslahat, psixokorreksion, psixoprofilaktik, psixologik ma'rifat tadbirlari va psixologiya ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

1.2.3. 60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ma'naviy-ma'riifiy;
- loyihaviy;
- pedagogik (umumi o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida);
- turli xizmatlar ko'rsatish.

1.2.4. 60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda psixologik mavzularga oid tadqiqotlarda ishirok etishi;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- psixologiyaga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet-el ilmiy tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar, yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referat va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-amaliy jurnallarga maqolalar tayyorlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash; soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirish;
- psixologiya fani sohasiga doir ilmiy-tadqiqotlar bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni uyg'unlashtirish;
- ma'lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llash *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish

jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- psixologik tadqiqotlari yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

- ishlab chiqarish jarayonlarida psixologik faoliyatini boshqarish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- tashkilot, korxonalar, muassasa va mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarining taklif va talablari asosida psixologik ma'rifat tadbirlarini tashkil etish;

- mahalliy matbuot, ilmiy-ommabop teleradio eshittirish va ko'rsatuvlarda psixologik materiallar bilan ishtirok etish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

Loyihaviy faoliyatda:

- joriy va davriy ko'rsatkichlar nisbati tahlili va zarur resurslarni hisobga olgan holda uni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatning monitoringi uchun ma'lumotlar bazasi yaratish;

- tadqiqot, analitik va konsalting loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun metodik instrumentariylar, me'yoriy hujjatlar, informatsion ma'lumotlar ishlab chiqishda qatnashish;

- psixologik ko'rsatkichlar, jarayon va munosabatlarni diagnostika qilish, baholash, takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

- fan sohasidagi xorijiy loyihalarda ishtirok etish;

- psixologiya yo'nalishlari bo'yicha loyihalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, tadqiqot natijalarini tarqatishda ishtirok etish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish;

- zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

- ta'lim sohasida xorijiy ta'lim tajribalarini joriy etishi lozim;

- ta'lim muassasasida psixologik xizmatni tashkil etish;

- ta'lim muassasasidagi muammoning yechishda psixologik usullardan foydalanish;

- o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar guruhlarida psixodiagnostik, psixoproflaktik, psixokorreksiyalash va psixologik ma'rifat yo'nalishida tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

- o'qituvchi va o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha maslahatlar berish va tavsiyalar ishlab chiqish;

- pedagogik jamoadagi ziddiyatlar, nizolarni bartaraf etish va hamkorlik muhitini shakllantirish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

Turli xizmatlar ko'rsatish faoliyatida:

- pullik psixologik xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- fuqarolar ichidan individual psixologik yordamga muxtoj kishilarga pullik xizmat ko'rsatishni qobiliyatiga;
- shaxsning individual faoliyati, oilaviy va shaxslararo munosabatlari bilan bog'liq muammolarni psixologik hal etish ko'nikma va malikalariga;
- bolalarning shaxsiy kamoloti bilan bog'liq muammolar yuzasidan psixologik maslahatlar berish qobiliyatiga;
- psixologik va sotsial-psixologik trening kurslari ishlab chiqish va psixologik yordamga muxtoj insonlar muammolarini yechish qobiliyatiga;
- bola, katta yoshdagilar va aqliy taraqqiyot holatini aniqlashga zarurat sezgan shaxslarga psixodiagnostik va psixologik maslahat yordam ko'rsatish;
- fuqarolarning shaxsiy muammolarini psixologik jihatdan yechishga ko'maklashish;
- muassasa, tashkilotlarda va korxonalarda psixologik xizmatni tashkil etish va uni amalga oshirish;
- psixologik xizmat ko'rsatish bo'yicha loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- yo'nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio maxsulotlarni ekspertiza qilish;
- ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish;
- muassasa va tashkilotlarda psixologik tadqiqotlarini o'tkazish;
- muassasa va faoliyatini psixologik tahlil qilish;
- turli psixologik xizmat sohalarida xorijiy tajribalarini joriy qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishning psixologik strategiyalarini ishlab chiqish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

2. 60310900-Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanish;

- psixikaning kognitiv, konativ va emotsional-affektiv sohasilarining psixologik xususiyatlarini, qonuniyatlarini, nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish;
- umumiy psixologiya faning predmeti, tadbiqot usullari, psixikaning xossalari, xususiyatlari, hodisalari, tamoyillari, psixologiya fanining tarixiy rivojlanish tendensiyalari va unga aloqador nazariy yondashuvlarni tahlil qilish
- psixologik eksperimentni tashkil etish va o'tkazish, metodikalarini tanlash va qo'llash, shaxsning motivatsiyasi sohasi, emotsional-irodaviy sohasi, kognitiv sohasiga ko'ra eksperimentlarni tashkil eta olish;
- sotsial psixologiya fani doirasidagi guruh, jamoa, guruhdagi va guruhlararo munosabat xususiyatlari, katta va kichik guruhlarni tadqiq etish, shaxsning o'rganishning sotsial psixologik muammolarini, ijtimoiylashuv, sotsial ustanovkalar, shaxsning guruhdagi o'rni, sotsial psixologiyaning amaliy tadqiqot xususiyatlarini tadqiq qilish;
- psixologik tadqiqot metodlari va metodikalarini saralash, ularni tatbiq qilish, natijalarni qayta ishlash metodlaridan foydalanish va natijalarni talqin etish;
- psixologik tekshiruv va tadqiqot bosqichlarini rejalashtirish, psixodiagnostika darajalari bo'yicha tekshiruv va tadqiqotni tashkil etish, psixodiagnostika natijalari bo'yicha xulosalar tayyorlash;
- psixodiagnostika metodikalarini ishlab chiqish, moslashtirish va tatbiq qilish;
- psixodiagnostika metodikalarini tatbiq qilish, natijalarni qayta ishlashda miqdor hamda sifat tahlil usullarini qo'llash;
- psixologik tekshiruv va tadqiqot natijalariga ko'ra diagnoz qo'yish va tavsiyalar ishlab chiqish;
- korxonalar, tashkilot va muassasalardagi jamoalarning psixologik xususiyatlarini baholash va ular sotsial-psixologik tavsifnomasini ishlab chiqish;
- sotsial-psixologik treningni tashkil qilish va uning o'tkazish texnologiyasini tatbiq qilish, psixologik trening dasturlarining ishlab chiqish va joriy etish;
- patsient va klientlarning xususiyatiga ko'ra psixologik konsultatsiya va psixokorreksiya tadbirlarini tashkil qilishni bilish, psixologik konsultatsiya va korreksiyaning tashkil qilish va o'tkazish texnologiyasini qo'llay olish;
- tarmoq va sohalarga ko'ra psixologik xizmat yo'nalishlarini belgilash va xizmat turini tashkil etish;
- favqulodda vaziyatlarda ekstremal psixologik yordam ko'rsatishni tashkil qilish;
- psixologiya muammolari doirasida loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- psixologik ma'rifat tadbirlarini tashkil qilish;
- psixologik tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqish;
- psixologik tadqiqot metodlari va metodikalarini, psixologik trening va konsultatsiyani tashkil etish texnologiyalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy soha va madaniy-ma'rifiy yo'nalishlarda faoliyat olib boruvchi tashkilotlarga psixologik xizmat ko'rsatish turini tavsiya etish bo'yicha **bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

-Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

-Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

-Tanlov fanlari – ta’lim yo’nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo’shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

-Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

-malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

-pedagogik amaliyot — pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: psixolog, pedagog.

2.3.2. 60310900 – Psixologiya (faoliyat turlari bo’yicha) ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar:

O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4860	162
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	690	23
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60310900 – Psixologiya (faoliyat turlari bo’yicha) bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o’tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4860	162	
1.01	OMTB104	Oliy matematika	120	4	1
1.02	UYTB104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	FALB104	Falsafa	120	4	2
1.04	URTB104	O’zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	XJTB104	Xorijiy til	120	4	1
1.06	DINB204	Dinshunoslik	120	4	4
1.07	RATB104	Raqamli va axborot texnologiyalari	120	4	2
1.08	ONFB104	Oliy nerv faoliyati va markaziy nerv sistemasi fiziologiyasi	180	6	1
1.09	RPDB104	Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya	180	6	1
1.10	UPSB124	Umumiy psixologiya	720	24	1,2,3,4
1.11	EKPB118	Eksperimental psixologiya	480	16	2,3,4
1.12	SOPB110	Sotsial psixologiya	360	12	2,3
1.13	PMQB206	Psixologik ma’lumotlarni qayta ishlash metodlari va texnologiyalari	180	6	3
1.14	UPDB210	Umumiy psixodiagnostika	300	10	3,4
1.15	PTAB210	Psixologik trening asoslari	300	10	4,5
1.16	PKPB306	Psixologik konsultatsiya va psixokorreksiya	180	6	5
1.17	UMPB306	Umumiy pedagogika	180	6	5

1.18	BISB304	Boshqaruv va ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat	120	4	6
1.19	PPPB306	Pedagogik psixologiya va psixologiyaning o'qitish metodikasi	120	4	6
1.20	KLPB306	Klinik psixologiya	180	6	6
1.21	YRPB404	Yuridik psixologiya	120	4	7
1.22	TMPB404	Ta'lim muassasalarda psixologik xizmat	120	4	7
1.23	MMPB404	Mehnat va muhandislik psixologiyasi	120	4	7
1.24	EVPB406	Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	4,5,6,7
		Jami	6060	202	
		Malakaviy amaliyot	690	23	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

psixika, evolyusiya, eksperiment, kuzatish, test, ong, shaxs, psixoanaliz, geshtalt psixologiya, kognitiv psixologiya, ichki regulyatsiya, motiv, motivatsiya, qadriyatlar, ustanovka, qiziqishlar, emotsiya, hissiyot, iroda, irodaviy aktlar, sezgi, sezgi chegarasi, sezgi qonuniyatlari, sezgi xususiyatlari, idrok, idrok xususiyatlari, xotira, tafakkur, tafakkur jarayonlari, psixodiagnostika, metod va metodika, test, intellekt testi, aqliy taraqqiyot, shaxslararo munosabat, trening, sotsial-psixologik trening, diniy e'tiqodlar, shaxs hulq-atvori, ijtimoiy munosabatlar, psixosomatika; somatopsixik, psixosomatik; praktikum, seminar, laboratoriya, psixologik xizmat, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat; psixologik tadqiqot ma'lumotlarini qayta ishlar metodlari va texnologiyalari, huquq tartibot idoralarida va harbiy sohada psixologik xizmat, tibbiy muassalarda psixologik xizmat, boshqaruv va ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:



O'zbekiston Milliy universiteti

I. Madjidov

202__-yil "___" _____

m.o'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi



Direktor

Sh. Yakubov

202__-yil "___" _____

m.o'.



Rektor

M. Kamilov

202__-yil "___" _____

m.o'.

Toshkent davlat pedagogika
universiteti

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish
va psixologik-pedagogik respublika tashxis
markazi



Rektor

A. Qirg'izboyev



Direktor

L. Gaynutdinova

202__-yil "___" _____

m.o'.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
60310900 – Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka
talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va
asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori L.Gaynutdinova, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori M.Kamilov, O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov birgalikda O'zMUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60310900 – Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-son Farmoni, “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son, “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son, “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son, “2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2019-yil 17-iyundagi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.


Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish
va psixologik-pedagogik respublika tashxis
markazi direktori




L.Gaynutdinova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
rektori




M.Kamilov

O'zbekiston Milliy universiteti
rektori




I.Madjidov

Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетидида ишлаб чиқилган 60310900-Психология (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича олий маълумотли бакалаврлар тайёрлашнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар янгиланган малака талаблари ва ўқув режасига

ТАҚРИЗ

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонунини ижро этиш, таълим мазмунини тубдан ислоҳ қилиш, тайёрланаётган кадрлар сифатининг республикада амалга оширилаётган чуқур иқтисодий ва ижтимоий ислохотлар талабларига, шунингдек, таълим, фан, техника ва технологиялар ривожланишининг илғор жаҳон даражасига мувофиқлигини таъминлаш бевосита малака талабларининг мазмунига боғлиқ.

60310900 – Психология (фаолият турлари бўйича) таълим йўналишининг малака талаблари ва ўқув режаси Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 5847-сон фармони, 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сонли қарори ҳамда ЎзР ОЎМТВ нинг 2018 йил 6 июндаги “Олий таълим йўналишларининг малака талаблари ва ўқув режаларини ишлаб чиқиш тўғрисида”ги №87-02-1322-сонли буйруғи, олий таълим соҳасини тартибга солувчи бошқа норматив ҳуқуқий ҳужжатларга ҳамда хориж тажрибаларига мувофиқ ишлаб чиқилган.

Бакалаврият таълим йўналиши ўқув режаси кредит-модуль тизими асосида шакллантирилган ва касбий компетенцияларига қўйиладиган талабларга мувофиқ, талабалар мажбурий ва танлов фанларини ўзлаштириши, амалиётларни ўтиши ва натижада касбий фаолиятида зарур билим, кўникма ва малака компетенцияларини эгаллашини таъминловчи мазмунда ишлаб чиқилган.

60310900 – Психология (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича тузилган янгиланган малака талаблари ва ўқув режаси хориж тажрибаси асосида уйғунлаштирилган, таълим олувчиларда чуқур билим, мустақил фикрлаш, юксак касбий малакаси шаклланишини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилган, бакалаврларнинг фанларни ўзлаштириш жараёнида тажриба, кўникмалар ҳамда тасаввурга эга бўлиш, қўйилган талабларни билиши ва улардан самарали фойдалана олиш кабилар тўғри кўрсатилган. Малака талаблари ва ўқув режасида фан олдида турган долзарб муаммоларни ўрганиш


ва уларнинг ижобий ечимини излаб топишда замонавий услуб ва технологияларга, лаборатория амалиётларига, семинар машғулотларига, мустақил билим олиш ҳамда олинган маълумотларни таҳлил қилишга кенг ўрин берилган.

Малака талабларини ишлаб чиқишда таълимни демократлаштириш, инсонпарварлаштириш, глобаллашув шароитида ўзига хосликни сақлаш ва жаҳон таълим маконига интеграллаштириш тамойилларига амал қилинган. Малака талабларидаги блоклар бўйича фанлар таркиби, уларнинг ўзаро нисбатлари битирувчиларнинг танлаган мутахассислиги бўйича олган назарий билимларини амалиётда қўллай олиш кўникмасини кучайтириш нуқтаи назаридан қайта кўриб чиқилган. Фанлар учун белгиланган вақт бюджетининг назарий, амалий, тажриба, мустақил ишлар учун тақсимоти битирувчининг назарий билимларини мустаҳкамлаш ва уларни амалиётда муваффақият билан қўллаш кўникмасини шакллантиришга қаратилган.

Малака талаблари ва ўқув режасини ишлаб чиқишда турдош олий таълим муассасаларининг талаб ва таклифлари инобатга олинган.

Хулоса қилиб айтганда, 60310900 – Психология (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича бакалаврлар тайёрлаш учун тузилган янгиланган малака талаблари ва ўқув режаси олий таълим ўқув жараёнини жаҳон андозалари даражасига етказишга йўналтирилган бўлиб, ҳар томонлама етук мутахассислар тайёрлашга оид масалаларни ўз ичига олган ва сифатли тузилган, Ўзбекистон Республикаси давлат стандартлаш тизими қоидалари талабларини қониқтиради ҳамда уни тасдиқлашни таклиф қиламан.

**Ислом Каримов номидаги
Тошкент давлат техника
университети профессор в.б. (DSc)**



К.А. Фарфиева



Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилган 60310900 – Психология (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича олий маълумотли бакалаврлар тайёрлашнинг тайёргарлик даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар янгиланган малака талаблари ва ўқув режасига

ТАҚРИЗ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университетида 60310900 – Психология (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши малака талабларини ишлаб чиқилишида Ўзбекистон Республикаси Президенти Девонининг 2018 йил 3 апрелдаги 5002-сонли топшириғи ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сонли қарори ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июндаги “2019-2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида талаб юқори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4358-сонли қарорлари билан тасдиқланган тамойилларга амал қилинган.

60310900 – Психология (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича тузилган янгиланган малака талаблари ва ўқув режаси хориж тажрибаси асосида уйғунлаштирилган, таълим оловчиларда чуқур билим, мустақил фикрлаш, юксак касб-кор малакаси шаклланишини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилган, бакалаврларнинг фанларни ўзлаштириш жараёнида тажриба, кўникмалар ҳамда тасаввурга эга бўлиш, қўйилган талабларни билиши ва улардан самарали фойдалана олиш кабилар тўғри кўрсатилган. Малака талаблари ва ўқув режасида фан олдида турган долзарб муаммоларни ўрганиш ва уларни ижобий ечимини излаб топишда замонавий услуб ва технологияларга, лаборатория амалиётларига, семинар машғулотларига, мустақил билим олиш ҳамда олинган маълумотларни таҳлил қилишга кенг ўрин берилган.

Малака талабларини ишлаб чиқишда таълимни демократлаштириш, инсонпарварлаштириш, глобаллашув шароитида ўзига хосликни сақлаш ва жаҳон таълим маконига интеграллаштириш тамойилларига амал қилинган. Малака талабларидаги блоклар бўйича фанлар таркиби, уларнинг ўзаро нисбатлари битирувчиларнинг танлаган мутахассислиги бўйича олган назарий билимларини амалиётда қўллаш олиш кўникмасини кучайтириш нуқтаи назаридан қайта кўриб чиқилган. Фанлар учун белгиланган вақт бюджетининг назарий, амалий, тажриба, мустақил ишлар учун тақсимоти

битирувчининг назарий билимларини мустаҳкамлаш ва уларни амалиётда муваффақият билан қўллаш кўникмасини шакллантиришга қаратилган.

Малака талаблари ва ўқув режасини ишлаб чиқишда турдош олий таълим муассасаларининг талаб ва таклифлари инобатга олинган.

Хулоса қилиб айтганда, 60310900 – Психология (фаолият турлари бўйича) таълим йўналиши бўйича бакалаврлар тайёрлаш учун тузилган янгиланган малака талаблари ва ўқув режаси олий таълим ўқув жараёнини жаҳон андозалари даражасига етказишга йўналтирилган бўлиб, ҳар томонлама етук мутахассислар тайёрлашга оид масалаларни ўз ичига олган ва сифатли тузилган, Ўзбекистон Республикаси давлат стандартлаш тизими қоидалари талабларини қониқтиради ҳамда уни тасдиқлашни таклиф қиламан.

ЎзМУ доценти, психол.д. (DSc) *М. Шамсиев* ў.Б. Шамсиев

